



XALQ DEPUTATLARI DANG'ARA TUMANI KENGASHINING QARORI

2025-yil 27-mart

VII-6-30-11-155-K/25

Dang'ara tumani

Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan mazkur tadbirlarga mablag‘lar ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining 2024-yil 30-yanvar kungi “Tashabbusli byudjet jarayonlarini o‘tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi KQ-666-IV-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024 yil 29 iyuldagagi KQ-787-IV-sonli qarorlariga asosan jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni tanlab olish va “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan mazkur tadbirlarga mablag‘lar ajratish maqsadida Xalq deputatlari Dang’ara tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Quyidagilar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 13 apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati Kengashining 2024-yil 30-yanvar kungi “Tashabbusli byudjet jarayonlarini o‘tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi KQ-666-IV-sonli qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024 yil 29 iyuldagagi KQ-787-IV-sonli qarorlari asosida joriy yilning 1-fevralidan 20-martiga qadar o‘tkazilgan to‘rt bosqichdan iborat jamoatchilik fikri asosida tadbirlarni shakllantirish jarayoni natijalari bo‘yicha tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining birinchi o‘rnbosari K.Latipovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Ishchi guruh xulosalariga asosan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 30-yanvardagi KQ-666-IV-sonli Qarori bilan tasdiqlangan “Tashabbusli byudjet jarayonlarini o‘tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom talablaridan kelib chiqib, ENG KO‘P ovoz olgan hamda “Ochiq byudjet” axborot portalida avtomatik tarzda g‘olib sifatida tanlab olingan takliflar “G‘olib” deb topilsin.

Ushbu takliflarni moliyalashtirish bo‘yicha,

“Manzilliy ro‘yhat” 1-ilovaga muvofiq;

Jihozlash tadbirlari bo‘yicha tovar (xizmat)lar reestri 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin hamda ijro uchun qabul qilinsin.

Bunda,

- Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha tuzilgan shartnomaga ishlar hajmining ko‘payishi yoki loyihaning o‘zgartirilishi bilan bog‘liq o‘zgartirishlar kiritilishiga yo‘l qo‘yilmaslik;

- Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltiriladigan tuman budgeti mablag‘lari tuman hokimligi qoshida ochilgan “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida jamlangan mablag‘larni boshqa maqsadlarga sarflanishi taqilanshi belgilab qo‘yilsin.

3. Tasdiqlangan Manzilliy ro‘yxat asosida:

- tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (I.Usmonov) tanlab olingan tadbirlarni moliyalashtirishini ta’minalash maqsadida, buyurtmachi tashkilotlariga tegishli mablag‘ manbaasi bo‘yicha (4017) “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” maxsus hisob raqamlari ochilishini;

- Tuman hokimligi hisobxonasi (Sh.Tursunov) Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan tegishli buyurtmachi tashkilotlarga mablag‘lar yo‘naltirilishini;

- Buyurtmachi tashkilotlar ajratilgan mablag‘larni loyiha-smeta xujjatlari asosida belgilangan tartibda maqsadli ishlatilishi va amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha Xalq deputatlari tuman Kengashi va tuman hokimligi huzuridagi Ishchi guruhga ma’lumot kiritib borilishini ta’minalasin.

4. Tuman hokimligining axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi (U.Usmonov) va tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (I.Usmonov) bilan birgalikda jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan va “g‘olib” deb topilgan tadbirlarning moliyalashtirishi hamda amalga oshirilishi lozim ishlar bo‘yicha ma’lumotlarni “Ochiq byudjet” portaliga joylashtirilishi va keng jamoatchilikka muntazam yoritib borilishini ta’minalasin.

5. Tuman byudjetining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilgan mablag‘larining belgilangan maqsadlarda va samarali foydalanilishi hamda mablag‘larning ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga Ishchi komissiya a’zolari shaxsan javobgarligi eslatib o‘tilsin.

6. Mazkur qaror ijrosini ta’minalash va nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (I.Usmonov) va barcha doimiy komissiyalar zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



TOJIXAKIMOV
SHUXRATJON
NURMUXAMMADOVICH

Xalq deputatlari Dang‘ara tumani Kengashining
 2025-yil 27-martdagি
 VII-6-30-11-155-K/25 -son qaroriga
 1-ilova

**Farg‘ona viloyati Dang‘ara tuman bo‘yicha "Tashabbusli budget" loyihasining 2025 yil 1-mavsumi
 natijalariga asosan jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarnri moliyalashtirish bo‘yicha
 MANZILLI RO‘YXAT**

№	G‘olib taklif ma’lumotlari					
	Taklif ID raqami	Ob’ektning manzili	Balansda saqlovchi korxonaning nomi	Amalga oshirish lozim bo‘lgan tadbirlar mazmuni	Amalga oshirish qiymati	Buyurtmachi tashkilot nomi
Dang‘ara tumani jami		x	x	17,985,392,216	x	
1	50389414011	Qiyali MFY	Dang‘ara tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Qiyali mahalla fuqarolar yig‘ini Oltio‘rtoq qishlog‘i Oltio‘rtoq ko‘chasi , Archazor ko‘chasi va Qadriyat ko‘chasiga asfalt qoplamasi yotkizish	1,499,868,054	"FARG‘ONA MINTAQAVIY YO‘LLARGA BUYURTMACHI XIZMATI" DAVLAT UNITAR KORXONASI

2	50381420011	Navbahor MFY	Dang‘ara tumani 1-KXM	Dangar tumani 1 sonli kasbxunar matabiga qo’shimcha binolar qurish va joriy ta’mirlash, issiqlik tizimi va kanalizatsiya tizimini yangilash	1,497,000,000	"FARG`ONA VILOYAT HOKIMLIGI KAPITAL QURILISH SOHASIDA BUYURTMACHI XIZMATI" DAVLAT UNITAR KORXONASI
3	50364354011	Katta turk MFY	Dang‘ara tumani MMTB	6-maktabni atrof devorni yangilash, eshik-romlarni almashtirish, sinf xonalarni pol qilish, matab xududini obodonlashtirish, sinf xonalarni joriy ta’mirlash	1,496,000,000	"FARG`ONA VILOYAT HOKIMLIGI KAPITAL QURILISH SOHASIDA BUYURTMACHI XIZMATI" DAVLAT UNITAR KORXONASI
4	50385095011	Kichik turk MFY	Dang‘ara tumani MMTB	36-maktabning Kichik Turk MFY Chag‘ali qishlog‘idagi filialini buzib yangi bino qurish va yopiq turdag'i sun'iy qoplamali ministadion qurish	1,495,000,000	"FARG`ONA VILOYAT HOKIMLIGI KAPITAL QURILISH SOHASIDA BUYURTMACHI XIZMATI" DAVLAT UNITAR KORXONASI
5	50387708011	Soy shildir MFY	Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	Soy shildir MFY Soy shildir qishlog‘iga zamonaviy tipdag'i stadion qurish yuvinish, xojatxona, kiyim almashtirish xonasi va yugirish yo‘lakchasi va kirish qismini asfaltlashtirish xamda avtoturargox qurish	1,500,000,000	"FARG`ONA VILOYAT HOKIMLIGI KAPITAL QURILISH SOHASIDA BUYURTMACHI XIZMATI" DAVLAT UNITAR KORXONASI
6	50372037011	Boy bo‘ta MFY	Tuman gaz ta’minoti bo‘limi	Boy bo‘ta MFY xududidagi ichki gaz trubalarini yangilash.	1,500,000,000	"HUDUDGAZTA‘MINOT" AKSIYADORLIK JAMIYATI

7	50376382011	Uvaysiy MFY	Dang‘ara tumani TTB	Dangara tumani Tibbiyot birlashmasini jixozlash	1,499,920,000	DANG‘ARA TUMAN MARKAZIY SHIFOXONASI
8	50385858011	Uymovut MFY	Tuman gaz ta'minoti bo'limi	Uymovut MFY Sho'r qishloq va Uymovut qishloqlari gazlashganligi va markaziy gaz trubalari eskirganligi sababli 4 000 metr gaz trubkasini 159 lik yangi trubalarga almashtirish, beton ustunlar o'rnatish va bo'yash ishlarini amalga oshirish	1,500,000,000	"HUDUDGAZTA'MINOT" AKSIYADORLIK JAMIYATI
9	50364734011	Katta boybuchा MFY	Dang‘ara tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Katta boybuchা MFY Farovon, Zargarlik, Kichik boybuchা, Oltinko'l, Shodlik, Qizg'aldoq, Ziyolilar ko'chalarini asfaltlashtirish	1,499,868,054	"FARG`ONA MINTAQAVIY YO'LLARGA BUYURTMACHI XIZMATI" DAVLAT UNITAR KORXONASI
10	50378374011	Bo'riqum MFY	Dang‘ara tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Bo'riqum MFYga qarashli Kichik Oqtepa qabriston yo'li 1090 metr Munavvar ko'chasi 1345 metr Zafarabod ko'chasi 8 maxalla 305 metr asfaltlash	1,499,868,054	"FARG`ONA MINTAQAVIY YO'LLARGA BUYURTMACHI XIZMATI" DAVLAT UNITAR KORXONASI
11	50385044011	Qoramulla MFY	Dang‘ara tumani Obodonlashtirish boshqarmasi	Qoramulla MFY Tadbirkorlar, Marifat, Sadoqat, Nurafshon, Olmos va Olmazor ko'chalarini asfaltlashtirish	1,499,868,054	"FARG`ONA MINTAQAVIY YO'LLARGA BUYURTMACHI XIZMATI" DAVLAT UNITAR KORXONASI

12	50376304011	Pishqaron MFY	Dang‘ara tumani MMTB	Dang‘ara tumani 3 maktabga qo’shimcha binolar qurish	1,498,000,000	"FARG`ONA VILOYAT HOKIMLIGI KAPITAL QURILISH SOHASIDA BUYURTMACHI XIZMATI" DAVLAT UNITAR KORXONASI
----	-------------	------------------	-------------------------	---	---------------	---

Xalq deputatlari Dang‘ara tumani Kengashining
2025-yil 27-martdagি
VII-6-30-11-155-K/25 -son qaroriga
2-ilova

**Farg‘ona viloyati Dang‘ara tuman bo‘yicha "Tashabbusli byudjet" loyihasining 2025 yil 1-mavsumi natijalariga asosan g‘olib bo‘lgan ID 050376382011 loyihani amalga oshirish bo‘yicha
xarid qilinadigan tovar(xizmat)lar
REESTRI**

No	Tovar(xizmat)lar nomi	Soni	Bozor narxi	Summasi
	Jami summasi	x	x	1,499,920,000
1	Infokiosk	8	13,000,000	104,000,000
2	Kamera MyID	14	350,000	4,900,000

3	Kompyuter monoblok	165	8,000,000	1,320,000,000
4	Printer chek	7	860,000	6,020,000
5	Smart monitor	13	5,000,000	65,000,000